



SOCIAL STATE – PERSONAL FREEDOM AND THE FORMATION OF SOCIAL INSTITUTIONS

Zafar Saydullayevich Botirov

Lecturer at the Department of Social Sciences

Alfraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, economic thinking, family, individual, child upbringing, obligation, duty, education, responsibility.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article provides a scientific analysis of the significance of the formation and development of social institutions necessary to ensure personal freedom and societal stability. It also demonstrates that measures aimed at promoting social justice and equality represent a key aspect and practical manifestation of the principles of a social state.

IJTIMOY DAVLAT - SHAXS ERKINLIGI VA IJTIMOY INSTITUTLARNING SHAKLLANISHI

Zafar Saydullayevich Botirov

“Ijtimoiy fanlar” kaferdasi o‘qituvchisi

Alfraganus universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: Jamiyat, iqtisodiy tafakkur, oila, shaxs, farzand tarbiyasi, majburiyat, burch, ta’lim, javobgarlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs erkinligini va jamiyatning barqarorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga egaligi ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy davlat, dastavval, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan choratadbirlar ham ijtimoiy davlat tamoyilining muhim qirrasi va amaliy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqdaligi ko‘rsatilgan.

СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО – СВОБОДА ЛИЧНОСТИ И ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ

Зафар Сайдуллаевич Ботиров

Преподаватель кафедры социальных наук

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, экономическое мышление, семья, личность, воспитание детей, обязанность, долг, образование, ответственность.

Аннотация: В данной статье научно проанализировано значение формирования и развития социальных институтов, необходимых для обеспечения свободы личности и устойчивости общества. Также показано, что мероприятия, направленные на обеспечение социальной справедливости и равенства, являются важным аспектом и практическим проявлением принципов социального государства.

Kirish. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy institutlarning maqsadi jamiyat hayotida ishtirok etish asoslari va tamoyillari hamda ijtimoiy-siyosiy institutlarning o‘zaro munosabatlari ham asta-sekin yangi, haqiqiy demokratik tamoyillar asosida faoliyat yurita boshladi. Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish, fuqarolarning o‘z erkinligini, huquq va manfaatlarini anglagan holda huquqiy davlat qurishda ishtirok etishlarini ta’minlash, zarur o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ijtimoiy munosabatlar mavzud bo‘lishi kerak. Jamiyatda shaxs va ijtimoiy-siyosiy institutlar munosabatlarining o‘zgarishi demokratik saylov jarayonlari bilan ham uzviy bog’liq edi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlashicha, “Jamiyat-islohotlar tashabbuskori”, “Xalq Konstitusiya va qonun ijodkori” degan yangi g‘oyalarni hayotga izchil tatbiq etish, fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini muntazam oshirib borishni islohotlarimizning natijadorligi va samarasini, bu yo‘ldan ortga qaytmaslikning kafolati deb bilamiz”. Shu bois siyosiy partiyalar tuzib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi. Shaxs erkinligi va ijtimoiy-siyosiy institutlararo munosabatlarda muhim o‘zgarishlar amalga oshadi. Ijtimoiy davlat konsepsiysi inson haq-huquqlarini ta’minlash va erkinliklarni rivojlantirishga qaratilgan asosiy tamoyillardan biridir. Ushbu tizimdan foydalanish, shaxs erkinligini va jamiyatning barqarorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy davlat, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab, shu orqali shaxs erkinligini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Bu quyidagi omillar sifatida ko‘rish mumkin: “Jamiyat hayotida amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar shaxsning erkin ma’naviyatini shakllantirish bilan birga fuqarolik jamiyati qurilishi institutlarida ham muhim o‘zgarishlar bilan bog‘liq”.

Jamiyat va davlat mavjudligining muhim omili sifatida o‘z qobiliyatini royobga chiqaria o‘lgan shaxs amal qiladi. U har bir insonning individual, shaxsiy erkinlik huquqi e’tirof etilishi natijasida qaror topadi. Inson o‘z faoliyati jarayonida mavhum tuzilmalar asosida harakat qilmaydi. Ijtimoiy davlat, dastavval, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan institutsional tuzilma sifatida paydo bo‘lgan. Ushbu vaqt oralig‘ida davlatning roli o‘zgarib, u faqat siyosiy kuch bo‘lib qolmay, balki iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilishga ham xizmat qilishni boshladi. U faollikning ko‘p qirrali ijtimoiy shakllari orqali sotsial jihatdan zarur vazifalarni hal qiladi. Bu esa falsafiy nuqtai nazardan inson faoliyatiga ijtimoiy zarur hodisa tariqasida yondashib, uni shaxs manfaatlari bilan jamiyat manfaatlari, inson manfaatlari bilan bashariyat manfaatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish orqali hayotiy muammolarni samarali yechishga qaratish kerakligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadrini ro‘yobga chiqarish va uning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash borasida birqancha muhim moddalar qayd etilgan. Masalan, “2-moddada Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar. 20-moddada insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. 54-moddada insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, deb ta’kidlangan. Zero, jamiyat manfaati, umumbashariyat manfaati ijtimoiyotning muayyan in’ikosi bo‘lib, shaxslar, insonlar manfaatidan boshlanadi. Shaxsning tarixdagи o‘rnini, ijtimoiy-siyosiy mavqeini tiklash orqali jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy salohiyati yuzaga keladi. Inson manfaatlarining oqilona inobatga olinishi orqali esa umumbashariy qadriyatlar rivojlanadi. Shaxs manfaati bilan jamiyat manfaatining, fuqarolar manfaati bilan davlat manfaatining mushtarak rivojlanishida, jamiyat taraqqiyotida inson omilining o‘sish holati namoyon bo‘ladi. Shu bois manfaatlar mohiyatini o‘rganish ham falsafiy ahamiyatga egadir.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, insonning jamiyatga mansubligi jamiyatning rivojlanish jarayonida tobora murakkab xususiyat kasb etadi va shaxsning har xil ijtimoiy guruhlarda ishtirok etish shakllarining rang-barangligida ifodalanadi. “Milliy qadriyatiga ega bo‘lmagan millat va elat bo‘lmaydi. Aslida milliy qadriyatlar ma’lum bir millatning tarixi, uning turmush tarzi, kelajagi, millatni paydo qilgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, o‘ziga xos til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan bevosita uzviy holda namoyon bo‘ladi”. Xalqlar ming yillar mobaynida o‘zlarining qudratli ma’naviy boyliklarini asrab kelgan. Eng katta ijtimoiy

guruh albatta, jamiyatning o‘zi hisoblanadi. Bu, bir tomondan, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyat manfaati ham murakkablashishi va jamiyatga qo‘silgan barcha ijtimoiy subektlar, shu jumladan ayrim inson shaxsiy manfaatlari ozaro ta’sirining murakkab uyushgan tizimi jarayonida olingan natija sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan, har xil katta va kichik ijtimoiy guruhlarning manfaatlari ham ijtimoiy (jamiyat a‘zolari uchun umumiy) xususiyat kasb etadi.

Shaxs va turli-tuman ijtimoiy subektlar ishtirok etadigan ijtimoiy-amaliy faoliyat juda rang-barangdir. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir jabhadan boshqa jahhaga o‘tishi muhim ijtimoiy jarayondir. Shaxsiy manfaat doim inson ishtirok etuvchi ijtimoiy-amaliy faoliyat vositasida jamiyat manfaati bilan bog’lanadi va aksincha, ijtimoiy manfaatlari jamiyatda mavjud amaliyot orqali ayrim shaxs manfaatlari bilan uzviy bo‘liqdir. Boz ustiga, jamiyatning rivojlanish darajasi qancha yuqori bo‘lsa, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa shuncha serqirra tus oladi.

Shaxs ijtimoiy va madaniy tajribaning ta’sirida rivojlanadi. Shuning uchun ham jamiyatda shaxs va ijtimoiy-siyosiy institutlarning o‘zgarishi masalasi ijtimoiy davlat uchun eng muhim masala hisoblanadi. Shu o‘rinda davlat, shaxs va jamoaning manfaatlarini birlashtirishda, jamiyatda barqarorlikni saqlashda muhim funktsiyalarini bajaradi. “Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham mehnat huquqi, fuqarolik huquqi masalalariga alohida to’xtalinish, ijtimoiy munosabatlarning asosiy jihatni sifatida ezgulik, insonlar qadr-qimmati, xalq manfaati masalalari turgan”. Shaxs erkinligi — ijodkorlik, shaxsiy qarorlar qabul qilish va o‘z faoliyatini o‘rganish imkoniyatidir. Ijtimoiy davlatning maqsadlaridan biri shaxs erkinligini rivojlantirishdan iboratdir. Ijtimoiy davlatda amaldagi qonunlar va normalar shaxsning erkinligi va huquqlarini himoya qilishi, individning ijtimoiy hayotda erkin va mas’uliyatli ravishda qatnashish imkonini berishi muhimdir. Ijtimoiy institutlar — davlat, oilalar, nodavlat tashkilotlari, jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy tuzilmalaridir. Ushbu institutlar shaxslarning ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi va ularning massa sifatida birlashishiga yordam beradi. Ijtimoiy davlat doirasida bu institutlarning shakllanishi va rivojlanishi ham o‘z-o‘zidan rasmiy va norasmiy strukturalarning o‘zaro munosabatlariga bog’liqdir. Ijtimoiy institutlar, shuningdek, qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy amaliyotlar orqali, shaxslar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, demokratiya sharoitida partiyalarning liderligi xalq manfaatlarini ifoda etuvchi g‘oyalarni ishlab chiqishgina emas, balki aholida, fuqarolarda siyosiy faollikni, siyosiy madaniyatni shakllantirishdan ham iboratdir. Partiyalarning bu funksiyasi uning zimmasiga fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning subektlariga aylantirish vazifasini qoyadi.

Bu birlashmalar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra fuqarolik jamiyatiga taalluqli bo‘lib, o‘tish davrida siyosiy tizimning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Falsafiy nuqtai nazardan demokratik jarayonlar tobora chuqurlashib borishi natijasida har qanday jamiyatda vaqtি kelib siyosat maydoniga turli xil partiyaviy muassasalar o‘rniga ma’lum manfaatlarning tarafdarlari bo‘lgan saylovchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi nohukumat va nopartiyaviy, siyosiy mavqeい baland bo‘lgan tashkilotlar kirib kelishi tabiiydir. Bunday hol ro‘y berganda eski partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va ularni moliyaviy ta’minlab turgan kuchlar siyosiy konyunkturaga bardosh bera oladigan jiddiy raqiblarga duch keladi. Bu esa, o‘z navbatida, partiya faoliyatini mablag‘ bilan yurgizib turgan guruhlarning bir qismi o‘z e’tiborini mustaqil sektorga qaratishiga olib keladi. Shu tariqa demokratik institutlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda yanada salmoqli o‘rin egallashi ta’minlanadi. Shaxs erkinligi va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy davlatning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bu jarayonlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, ijtimoiy adolatni o‘rnatish va fuqarolar o‘rtasida ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy davlat, shaxs erkinligi va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi. Shu tariqa, ijtimoiy davlat ijtimoiy nazorat va ijtimoiy himoya mexanizmlarini yaratish orqali shaxs erkinligining saqlanishini ta’minalaydi. Bu holat ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni rag‘batlantirish va xalqaro arenada davlatning obro’sini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs erkinligi va ijtimoiy institutlarning o‘zaro munosabatlari orqali yaratiladigan ijtimoiy tizim, mustaqil, erkin va barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda nodavlat va jamoat tashkilotlari jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq sodir bo‘lgan o‘zgarishlar jarayonida faollashib bordi, chunki bozor iqtisodiyoti barcha institutlar kabi ularning ham erkin faoliyat yuritish jarayonlarida faol qatnashishini talab etadi. Ya’ni, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini joriy etish va erkin faoliyatni qo‘llab-quvvatlash ular qiladigan ishning asosi hisoblanadi. Chunki, aynan erkin faoliyat yuritishga asoslangan bozor iqtisodiyoti nodavlat va jamoat tashkilotlarining haqiqiy fuqarolik institutlari sifatida islohotlarda qatnashishiga imkon beradi. Shu bilan birga ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida manfaat egalari turli o‘rin va mavqega, turli mulk shakllari va madaniyatga ega bo‘lsalarda, bir-biriga mushtarak manfaatlarni ifoda etadilar. Bu ijtimoiy tarkib, fuqarolik jamiyatni qurish qonuniyatlariga ko‘ra, munosabatlar subyektini erkin faoliyat ko‘rsatishga, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlaridan foydalanishga undaydi. Bunday mexanizmlarsiz ijtimoiy tarkibda ma’muriy boshqaruvda byurokratiya, korrupsiya kabi salbiy hollar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun shaxslarning har xil birlashmalari, kasaba uyushmalari, tadbirkorlar ittifoqlari, iste’molchilar jamiyatlari,

xullas, nodavlat va jamoat tashkilotlari (shartnoma asosida) o‘zaro aloqa o‘rnatadilar va shu tariqa muayyan darajada fuqarolik jamiyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minlab turadilar.

Ijtimoiy davlatda asosiy tashkilotlaridan biri mahalla xisoblanib u muhim rol o‘ynaydi. Mahalla, odamlar o‘rtasida ijtimoiy bog‘lanishlarni mustahkamlash, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, hamda aholining bir-biriga yordam berish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. “Mahalla” aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish sektorini bevosita turarjoylarga yaqinlashtirish, serviz xizmat ko‘rsatishni rang-baranglashtirish, fuqarolarning madaniy ehtiyojlari, talablari darajasida tashkil etishga intilmoqda. Sh.M.Mirziyoyev quyida inson va jamiyat uyg‘unligini ifoda etadigan fikrlarni ilgari surgan: “Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘ ” – degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uy-joylar, zamonaviy korxonalar, ta’lim, tibbiyat, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo‘shayotgan tarixiy bir davrdir”. Shu o‘rinda jamg‘arma nodavlat tashkilot sifatida mahallalarda madaniy tadbirlar o‘tkazish, maishiy xizmat ko‘rsatish, turarjoylarni obodonlashtirish, kommunal xizmatni yaxshilash, aholini suv, gaz bilan ta’minlash ishlarida mahalliy hokimiyat organlariga yaqindan yordam bermoqda. Keyingi yillarda mahallalarda tandirxona, oshxona, kimyoviy tozalash, poyabzal tuzatish, savdo-sotiqlar shoxobchalari yaratildi va bu chora-tadbirlar aholining ijtimoiy-madaniy hayotini yaxshilash, turmush darajasini oshirishga qaratilgandir.

Shu bilan birga, mahalla nafaqat xalqimizning jamoa bo‘lib yashash, ayni paytda demokratik institut sifatida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish makoniga ham aylandi. Mamlakat taraqqiyotida u o‘ziga xos tarzda odamlarni birlashtirish, mahalliy muammolarni birgalikda hal etish, o‘z-o‘zini boshqarish orqali ularda demokratik ijtimoiy-siyosiy ko‘nikmalarni shakllantirish maskani sifatida shaxsning erkin faoliyat yuritishi, kamoloti uchun xizmat qiladigan tengsiz ijtimoiy institutdir. Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalalarning maeqi va imkoniyatlari yanada kengaymoqda, joylarda maahalliy hokimliklarning ayrim vakolatlari bevosita mahallalarda o‘zining ifodasini tormoqda.

Xulosa qilib, ijtimoiy davlat shaxs erkinligini ta’minalash va ijtimoiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishini qo’llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi va mamlakatimizda shaxs erkinligining konstitusion asoslari yaratildi va mustahkamlandi, jamiyat hayotida siyosiy partiylar, demokratik institutlar ijtimoiy-siyosiy hayotdagagi o‘ziga xos o‘rin o‘rin egallab, mavqega ega bo‘lishlari uchun demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga, fuqarolarning siyosiy faolligi va madaniyatini oshirishga harakat qilmoqda. Shu o‘rinda davlat tizimi, fuqarolar o‘rtasidagiadolat, tenglik va ishonchni ta’minalashga qaratilgan. Shaxs erkinligi va ijtimoiy

institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, jamiyatda barqarorlik va rivojlanish jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent. "O'zbekiston". 2024. – B. 53
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 .- B.25-26. (440 b.)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). –Toshkent, 2023 yil. <https://lex.uz/docs/6445145>.
4. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т.: Шарқ, 1998. –141-б.
5. «Авесто» тарихий-адабий ёдгорлик Асқар Маҳкам таржимаси. - Тошкент: Шарқ, 2015.